

ROSSIYA IMPERIYASI DAVRIDA SAMARQAND VILOYATI SHAHAR VA QISHLOQ AHOLISINING YANGICHA MEHNAT MUNOSABATLARI HAQIDA.

Axmedova Zarnigor Farxodovna.

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti.

Zarnigoraxmedova18@gmail.com.

Turkiston aholisining xo'jalik faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan mashg'ulotlari va kasb-korlari asrlar davomida taraqqiy etib, mavjud geografik joylashuv, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, aholining etnik qatlamlari va boshqa omillar bilan bog'liq holatda rivojlanib kelgan. Viloyatda aholi sonining o'sib borishi, paxtachilik, bog'dorchilik va ipakchilikning rivojlanishi, buning natijasida viloyatda aholining bandligi bilan bog'liq ayrim tarmoqlarning ixtisoslashuvi, hududlarning ixtisoslashuvi, tovar-pul munosabatlariga asoslangan iqtisodiy aloqalarning chuqurlashuvi, qishloq xo'jaligining o'sish sur'ati sanoat xomashyosi va foydali qazilmalar ishlab chiqarish, fabrika va zavodlarning paydo bo'lishi uchun zamin hozirladi. Turkiston o'lkasida Rossiya imperiyasi hukmronligining mustamlaka boshqaruв tizimi shakllangach o'lkada mavjud shaharlar va ularning boshqaruв tizimi va vazifalarida o'zgarishlar yuz berdiki, bu tarixiy jarayonlar Samarqand viloyati shaharlari hayotida ham o'z aksini topgan.

Turkiston o'lkasining qishloq joylarida aholining 86,17% i, shaharlarda esa 13,83% i yashardi. Shahar aholisi nisbati faqat Turkiston o'lkasining yirik savdo-sanoat markazlari - Toshkent, Qo'qon, Andijon, Samarkand, Marg'ilon va barcha shahalar joylashgan tub viloyatlar - Sirdaryo, Fargona va Samarqand viloyatlarida yuqori edi. 1897-yilgi ro'yxatga olish hujjatlarida u faqat rus aholiga nisbatan keltirilgan bo'lib, quyidagi ko'rinishga ega: dvoryonlar va amaldorlar-2,1%, shahar aholisi va ruhoniylar- 6,5%, dehqonlar - 20%, kazaklar - 8,1%. Shunday qilib, krestiyanlar va kazaklarning o'ziga to'q qatlamlarini ham hisobga olganda, rus aholisining deyarli yarmi Rossiya samoderjaviyasining Turkistondagi mustamlaka apparatining asl o'zagini tashkil etar

edi.¹

Samarqand viloyati o‘zining qulay tabiiy sharoiti, unumdor tuproq, suv va boshqa manbalarining mavjudligi bilan bu davrda ham ishlab chiqarishning barcha sohalari rivojlangan hududlardan biri bo‘lgan. Samarqand viloyatida aholining bandligi masalasini yerli aholining hududiy jihatdan ularning shahar yoki qishloq hududlarida yashashlaridan kelib chiqqan holda tahlil etish mumkin. Chunki, bu davrda Samarqand viloyati aholisining 84,26 foizi qishloq hududlarida, 15,74 foizi shahar hududlarida yashab kelishgan.² Bu davrda viloyatda mavjud shahar va qishloq aholisining bandligi ularning yashash sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lgan. Xususan, shahar aholisining bandligi ishlab chiqarish va savdo-sotiq bilan bog‘liq bo‘lib, qishloq aholisi asosan dehqonchilik, ko‘chmanchi aholi chorvachilik bilan band bo‘lgan. Aholining shahar va qishloqqa oid xo‘jalik sohalaridagi bandligi viloyatning ma’muriy-hududiy tuzilishiga ham bevosita bog‘liq edi.

Samarqand viloyati aholisining uzoq vaqtlardan buyon shakllangan yashash sharoitlaridan kelib chiqqan holda aholining bandligi masalasini quyidagi guruhlarga ajratgan holda tahlil qilish mumkin. Tadqiqot mavzusidan kelib chiqqan holda Samarqand viloyati aholisining hududiy jihatdan shahar va qishloq aholisi bandligiga ko‘ra xo‘jalik yuritish guruhlariga ajratish mumkin. Masalan; Mahalliy an’anaviy ishlab chiqarishda band bo‘lgan aholi, ko‘chmanchi chorvador va dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholi hamda hunarmand aholi va XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab mustamlaka ma’muriyati o‘lkada olib borgan iqtisodiy siyosati natijasida kirib kelgan kasblar shular jumlasidandir. Viloyatning shahar hududida yashab kelgan aholining asosiy kasblari xizmat ko‘rsatish sohasi, savdogarlar, hunarmandlar va qisman dehqonchilikdan iborat bo‘lgan. Qishloq hududida yashovchi aholi vakillari dehqonchilik, bog‘dorchilik, chorvachilik va qisman hunarmandchilik bilan mashg‘ul bo‘lganlar. Turli xil kasblar bilan band bo‘lgan aholining umumiyligi aholi sonidagi miqdoriga ko‘ra, 4,27 foizini savdogarlar, 12,98 foizini hunarmand va sanoatchilar,

¹ Абдурахимова Н.А, Эргашев Ф.Р. Туркистанда чор мустамлака тизими.- Тошкент. 2002. 98-6.

² Нормуродова Г.Б. XIX аср охири ва XX-аср бошларида Самарқанд вилояти аҳолисининг ижтимоий стратификацияси. – Тошкент: Yangi nashr, 2013. 83-бет.

41,79 foizini dehqonlar va 26,57 foizini ishchilar tashkil etgan.³

10-ilova

	Zarafshon Okrugi	Savdoga r	Hunarmand va sanoatchi	Dehqon	Ishchi
1	Samarqand bo‘limi	6501	13 000	60 085	38 530
2	Kattaqo‘rg‘on bo‘lim	79	9268	16 934	9971
3	Tog‘li tumanlar boshqaruvi	2898	6521	15 674	10 437
4	Jami	9478	28 789	92 693	58 938

Viloyatdagi shaharlar aholisi sonining ortib borishi ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining muhim omili edi. Turkiston o‘lkasida Rossiya imperiyasi siyosiy hukmronligining o‘rnatalishi natijasida Samarqand viloyatida ham mustamlakachilik tartiblari joriy etila boshlaganligi, bu yerdagi qishloq va shahar aholisining ishlab chiqarish va bandligi taraqqiyotiga ham o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadı. Bu yerda Rossiya imperiyasi manfaatlaridan kelib chiqqan holda hukmron hokimiyatning strategik mavqelari mustahkamlandi, ishlab chiqaruvchi kuchlar va aholi bandligini taqsimlashning mustamlaka tizimi o‘rnatildi. Bu esa mustamlaka boshqaruvidagi Turkiston o‘lkasi va uning viloyatlaridagi iqtisodiy jarayonlarda ziddiyatli holatni yuzaga keltirdi⁴.

³ Нормуродова Г.Б. XIX аср охири ва XX-аср бошларида Самарқанд... 84-бет.

⁴ Кўрахмедов А.Э.XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларида Самарқанд вилоятида иқтисодий ва маданий ҳаёт. (“Туркестанский сборник” маълумотлари асосида). Тарих фан. ном. дис. автореф. – Т., 2001.– С. 13.

Samarqand viloyati aholisining bandligi masalasi davr va zamon muhitiga qarab o‘zgarib rivojlanib borgan. “Zarafshon vodiysida yashayotgan mahalliy xalqlar, - deb yozadi A.Grebenkin, hunarmandchilikda yangi-yangi va sifatli mahsulotlar tayyorlashlari bilan zamon talabi darajasida ish olib borganlar”⁵.

XIX asr ikkinchi – XX asr boshlarida Samarqand viloyati aholisi, chorvachilik, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullangan. Ba’zan ular bu mashg‘ulotlarni birgalikda olib borishgan. Lekin, umuman voha aholisining birinchi gal dagi mashg‘uloti, dehqonchilik, chorvachilik, xususan uning asosiy tarmog’i hisoblangan qorako‘lchilikdan iborat edi. Samarqand bir tirik jon sifatida rivojlanib, o‘zgarib unda mahallalar kengayib bordi. Samarqandda mahallalar ishlab chiqarish va hunarmandchilik asosida jamlangan bo’lib, bu ularning nomlarida o‘z aksini topgan (kulolonda- kulollar, sharbatdorda-qandolatchi, so’zangaron- igna tikuvchilar, zargaron-zargarlar va boshqalar).

Hududlarga ko’chirib kelingan hunarmandlarning nomi ham qo’yilgan (Guzari Toshkandiy, Xo’jandiy, Urgutiy, Daxbedi, G’ijduvoni, Xavosi, Zominiy va boshqalar), suv bilan bog’liq bo’lgan joy nomlari (Obi-Mashxad, Qo’sh-hovuz, Havuzi-sangin, Havuzi-baland, Chashma va boshqalar), xiyobon va yashil maydonlar nomlari (Bog’i-Maydon, Bog’i-Baland, Bog’i-shamol, Qo’shchinor, Kavarzor, Lolazor, Olmazor va boshqalar), etnologik joy nomlari (Arab-xona, Jugi-xona, Turk-man qishloq, Eroni-qishloq, Yaxudiyon va bohqalar). XIX asrning oxirida shaharda jami 96 ta guzar bo’lgan.⁶ Har bir guzarda 55 ming aholi istiqomat qilgan. Kichik hudularda (kvartallarda) 450 nafardan 800 nafargacha, katta hududlar (kvartallar) (Toshkent va Charmgari o‘z navbatida to’rt qismidan iborat bo’lgan) yahudiy guzarlari- 2300 nafardan 2500 kishigacha, Lolazor-2000, Qozi G’afur-1000 nafargacha odam yashagan.

Shahar aholisining ichki ehtiyojlarini qondirishda mahalliy hunarmandchilik mahsulotlari muhim o‘rin tutsa-da, o‘lkada zavod fabrika mahsulotlarini ko‘payib borishi bilan mahalliy kosibchilik ustaxonalari kamaya boshlaydi. Agar 1888- yilda shaharda 1300 dan ortiq turli ustaxonalardan tashqari 1969 ta mayda hunarmandchilik ishlab

⁵ Гребенкин А. Таджики Зеравшанской долины // Туркестанский сборник. СПб., 1887. – Т. 406. – С. 184.

⁶ Абрамов М. Гузары Самарканда.-Ташкент. 1989.-С.7-8.

chiqarish korxonasi faoliyat ko'rsatdi. 1907-yilga kelib ularning soni 963 taga tushib qoldi. Ustaxonalarning ma'lum qismi birlashib yiriklashgan bo'lsa, ma'lum qismi zavod-fabrika mahsulotlari bilan raqobat qila olmay, yopiladi. Hunarmandchilikning ayrim turlari, masalan igna tayyorlash umuman tugatilib, o'rniga yangi hunarlar, masalan choy qadoqlash hunari yuzaga keladi. Bu davrda Samarqand o'lkada choy savdosi bo'yicha asosiy o'rinda turar edi.⁷ Bundan tashqari mintaqada imperiya tomonidan yangi kasb va hunarlarning kirib kelishi natijasida mahalliy aholi orasida tannazulga uchragan yana boshqa kasb- hunarlar mavjud bo'lgan.

Mahalliy aholining ehtiyojlarini ta'minlovchi hunarmandchilik tipidagi sanoat korxonalari bo'lib ularda 1yoki 2 kishi yoki egasining o'zi ishlagan. 1908-yilda jami ishlab chiqarish hajmi 2103749 rubil bo'lgan 8034 ta muassasa mavjud bo'lib, 11037 ishchi bolgan. Mahalliy turdag'i hunarmandchilik sanoat korxonalari orasida eng ko'zga ko'rinadigani saryog' ishlab chiqarish bo'lgan. Yangi ko'chib kelgan rus va kavkazlik aholi teri oshlash temirchilik bilan shug'ullanishgan bundan tashqari oxirgi vaqtarda rus dehqonlari saryog' tayyorlash bilan shug'ullanib, mahalliy aholiga sotganlar. Mahalliy aholini ish bilan ta'minlagan ipak to'qish va ipak o'rash hunarmandchiligi uch yil ichida ya'ni 1905-yildan 1908-yilgacha sezilarli darajada kamaydi, korxonalar soni 134 taga kamaydi. Ipakchilik sanoatining tannazulga uchrashi butun mintaqada sezilarli bo'lib, bu asosan ipak qurti kasalliklari, tut ekinlarining kamayishi va bundan tashqari oilaviy hayotda qimmatbaho ipak matolarining arzon paxta mahsulotlari bilan almashtirilishi bilan izohlanadi.

So'nggi yillarda hunarmandchilik korxonalari qisqarish va shu bilan birga ularning aylanmasini oshirishining sezilarli jarayoni kuzatildi, bu mintaqada shakllanayotgan yirik sanoat korxonalari ta'siri ostida kamayganini ko'rish mumkin. 1910-yilda ustaxolar va hunarmandchilikning umumiyligi soni 401, 4 foizga kamaydi.⁸ Kirib kelgan yirik sanoat korxonalari ta'siri asrlar davomida shug'ullanib kelgan aholining daromad manbai

⁷ Зияева Д.Х.. XIX аср охири – XX аср бошларида Самарқанд шаҳрида маъмурий бошқарув ва ижтимоий-иктисодий ахвол. Самарқанд шаҳрининг 2750 йиллик юбилейига бағищланган халқаро илмий симпозиум материаллари.- Тошкент, Самарқанд. 2007. -375-376-б.

⁸ В.В.Заорская и К.А.Александревъ. Туркистанского края. Промышленные заведения. -Петроград, 1915.-С. 141.

bo‘lgan hunarlarning kasodga uchrashiga sabab bo‘ldi desak mubolag’ a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахимова Н.А, Эргашев Ф.Р. Туркистанда чор мустамлака тизими.- Ташкент. 2002. 98-б.
2. Нормуродова Г.Б. XIX аср охири ва XX-аср бошларида Самарқанд вилояти аҳолисининг ижтимоий стратификацияси. – Ташкент: Yangi nashr, 2013. 83-бет.
3. Кўрахмедов А.Э. XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларида Самарқанд вилоятида иқтисодий ва маданий ҳаёт. (“Туркестанский сборник” маълумотлари асосида). Тарих фан. ном. дис. автореф. – Т., 2001.– С. 13.
4. Гребенкин А. Таджики Зеравшанской долины // Туркестанский сборник. СПб., 1887. – Т. 406. – С. 184.
5. Абрамов М. Гузары Самарканда.-Ташкент. 1989.-С.7-8.
6. Зияева Д.Ҳ.. XIX аср охири – XX аср бошларида Самарқанд шаҳрида маъмурий бошқарув ва ижтимоий-иқтисодий аҳвол. Самарқанд шаҳрининг 2750 йиллик юбилейига бағишлиланган халқаро илмий симпозиум материаллари.- Ташкент, Самарқанд. 2007. -375-376-б.
7. В.В.Заорская и К.А.Александревъ. Туркестанского края. Промышленные заведения. -Петроград, 1915.-С. 141.